

**TARBIYA FANINI O‘QITISH JARAYONINI LOYIHALASH,  
REJALASHTIRISH VA REFLEKSIYALASH****Egamberdiyeva Bonu Karimboy qizi,***Urganch davlat pedagogika instituti 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tarbiya jarayonlari uning inson hayotidagi o‘rni hamda tarbiya fanini o‘qitish jarayonini samarali tashkil etishning muhim bosqichlari — loyihalash, rejalashtirish va refleksiya jarayonlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan.

**Kalit so‘z:** tarbiya, loyihalash, rejalashtirish, refleksiya, pedagogik jarayon, pedagogik yondashuv, o‘quvchi shaxsi.

**Annotation.** In this article, the processes of education, its role in human life, and the important stages of effectively organizing the process of teaching the subject of education — designing, planning, and reflection — are analyzed from a scientific and theoretical perspective.

**Keywords:** education, designing, planning, reflection, pedagogical process, pedagogical approach, student personality.

**Аннотация.** В данной статье научно и теоретически проанализированы процессы воспитания, его роль в жизни человека, а также важные этапы эффективной организации процесса преподавания дисциплины «Воспитание» — проектирование, планирование и рефлексия.

**Ключевые слова:** воспитание, проектирование, планирование, рефлексия, педагогический процесс, педагогический подход, личность учащегося.

**Kirish.** Respublikamiz mustaqillikka erishgach ta’lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish uchun bir qancha yangi asoslar yuzaga keldi. Jumladan “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonunning yangilanishi ta’limni tubdan isloh etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi malakali kadrlar tayyorlash imkoniyatini beradi. Tarbiya tushunchasi millat tarixi va jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha mohiyatga ega bo‘lib, har xil tarzda izohlanib kelindi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, tarbiyani izohlashda yangi sog‘lom pedagogik tafakkurga tayangan holda yondashuv qaror topa boshladi. Endilikda tarbiyaning irsiy-biologik jihatlari va milliylikiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Milliy tarbiya xalq nomi va uning tarixi chambarchas bog‘liqdir. Buning uchun xalq pedagogikasi boyliklari, mutafakkirlarning pedagogik qarashlari tizimli sinchkovlik bilan o‘rganilmoqda. O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha 2017–2021 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasida “ta’lim tizimini takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish” alohida ta’kidlangan. Tarbiya fanlarini o‘qitishda mustaqil ta’lim topshiriqlari global masalalar sirasida markaziy o‘rinni egallaydi.[1]

Tarbiya-shaxsda muayyan jismoniy, aqliy, ruhiy, axloqiy va ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir. Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta’minlash yo‘lida qo‘llaniladigan choratadbirlar majmuasi tarbiyaviy jarayonni tashkil etadi. Tarbiya insonning yuksakligini ta’minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida inson ham, kishilik

jamiyati ham mavjud bo‘la olmaydi. Chunki inson va jamiyatning mavjudligini ta‘minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqa bit avlodga o‘tadi. Pedagogik adabiyotlarda tarbiya atamasi keng va tor ma‘nolarda qo‘llaniladi.


**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Umuman, ta‘lim va tarbiyani insonparvarlashtirishning diqqat markazida insonning muhim masalasi va muddaosi, ya‘ni bolalarda insonshaxsiga dunyodagi eng yuqori, bebaho boylik sifatidagi munosabatini shakllantirishdek faoliyat yotadi. Bola tarbiyasida, umuman, tarbiya sohasida quyidagi faoliyatlarga yondashilgan holda ish olib borilsa maqsadga erishish ancha oson va samarali bo‘ladi. [2]



Yosh avlodda ta‘lim – tarbiyaning o‘rnini rivojlantirishda har tomonlama yuksak qadriyatga ega bo‘lgan shaxslarni yetishtirishda ushbu tamoyillarga suyanish ularni amalda qo‘llay olish har birimizning burchimiz sanaladi. Tarbiyaning milliy qadriyatlar bilan birga olib borilishi bu milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tarbiya jarayoniga uyg‘un holda singdirish demakdir. Tarbiya faqat bilim berish emas, balki insonning dunyoqarashi, e‘tiqodi axloqi va ijtimoiy xulq – atvorini shakllantirishdir. Bola tarbiyasida uning yoshi va o‘ziga xos xususiyatlari, dunyoqarashiga jiddiy e‘tibor berish va har tomonlama o‘rganish lozim. Tarbiyalanuvchining shaxsini hurmat qilishning mazmuni shundan iboratki, har bir inson o‘zining fikri, his-tuyg‘usi, orzu-intilishi bilan noyob shaxsdir. Tarbiyachi yoki o‘qituvchi shu noyoblikni anglab, tarbiyalanuvchini shunchaki “o‘quvchi” emas, balki o‘z qobiliyatiga ega shaxs sifatida ko‘rishi lozim.

Hurmat — bu faqat odob belgisi emas, balki insonparvar tarbiyaning asosi hisoblanadi. Hurmat orqali o‘quvchida o‘ziga ishonch, faollik va o‘ziga mas’uliyat hissi kuchayadi.

**Muhokama.** Har qanday loyihalash obyektining, bu pedagogik tizimmi, pedagogik jarayonmi, pedagogik vaziyatmi, uning asosiy qismi - uning ishtirokchilarining faoliyati hisoblanadi. Shuning uchun, birinchi navbatda, o‘qituvchi va ta’lim oluvchining faoliyati loyihalashtiriladi. Loyihalash istalgan pedagogning (tashkilotchilik, bilish va muomala qila olish bilan bir qatorda) vazifasidir, maktabda o‘quv-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishga imkon yaratadi. Loyihalash jarayonida va u orqali pedagogik jarayon ishtirokchilarining rivojlanishini ta’minlaydigan pedagogik texnologiya ishlab chiqiladi. Texnologiya loyihalash mahsulidir.[3]



Pedagog tomonidan loyihalash faoliyatini yuqori darajada o‘zlashtirganligini oldindan ayta olish, rejalashtirish, tuza olish va modellashtirish ko‘nikmalarining shakllanganlik darajasi belgilaydi. Bu tushunchalarni va ularning mazmunini alohida qarab chiqamiz. Dastlabki tushuncha: «bashorat qilish - kelajakda biron-bir voqea natijasini oldindan ko‘rmoq, oldindan aytib bermoq». Didaktik bashorat qilish - didaktik voqealar rivoj topishini ilmiy tarzda

oldindan ko‘ra olish jarayoni tushuniladi. Bashorat qilish loyihadan farqli ravishda o‘zgarimas mazmunga ega. Bashorat qiluvchi modellar asosida ta’lim jarayonini jadallashtirish uchun tavsiyalar ishlab chiqiladi. Didaktik bashorat qilish, shuningdek, pedagogning o‘qitish faoliyatini rejalashtirishga asos sifatida namoyon bo‘ladi. Ikkinchisi rejalashtirish- biror narsaning rejasi yoki loyihasini solishtirish bo‘lib, reja - «umumiy maqsadga birlashgan amalga oshirilishi uchun dastlab bir qancha oldindan o‘ylab qo‘yilgan harakatlar, tadbirlarni bajarish talab etiladigan niyat, loyiha, topshiriqdir»[4]. Ko‘pincha rejalashtirish va loyihalash sinonimlar tarzida foydalaniladi. Reja va loyihani tuzish maqsadi nuqtayi nazaridan, haqiqatda farq yo‘q. Reja ham, loyiha ham kelgusi aniq voqelikni yoritadi va uni amalga oshirish uchun tuziladi. Lekin, fikrimizcha, loyihalash rejalashtirishga qaraganda kengroq tushunchaga ega.

Model - tabiiy yoki ijtimoiy borliq muayyan ko‘rinishning, inson madaniyati, g‘oyaviy-nazariy ta’lim mahsulining, aslining o‘xshatmasi (chizmasi, tarkibi, belgilari tizimi). Bu o‘xshatma asl bo‘lib, uning xossalari va tuzilishi, uni o‘zgartirish yoki boshqarish haqidagi bilimlarni (m a’lumotni) saqlash va kengaytirish uchun xizmat qiladi. Model - bu aslini bilish va boshqarishdagi «vakili», «o‘rinbosari»dir. Muayyan shartlarda

nusxani tayyorlash va tadqiq qilish natijalari asl nusxaga o'tkaziladi. Model tushuntirish, oldindan aytish, topilmali vosita sifatida, doimo kognitiv rolni bajaradi.

**Xulosa.** Demak, o'qitish jarayonini loyihalash uchun ijtimoiy buyurtma sifatida ta'limning umumiy maqsadlari asosida, o'quv maqsadlarini, buning uchun o'qish va o'qitishni, o'zlashtirishni rejalashtirgan holda, o'qish natijalarini kafolatlash tizimini ishlab chiqish lozim. Shunday qilib, pedagogik texnologiyada o'quv mazmuni asosida o'zlashtirish natijalarini kafolatlash uchun o'quv maqsadlari oydinlashtiriladi va o'quv mashg'ulotlari loyihalashtiriladi. Bugungi kunda pedagogik tizimni loyihalash va rejalashtirish masalasi ta'lim tizimida yetakchi tendensiya sifatida namoyon bo'lmoqda. Biroq loyihalash va rejalashtirishga doir faoliyatning mazmun-mohiyati hamma uchun birdek tushunarli bo'lmayapti. Shuning uchun fanlar bo'yicha yaratilayotgan ta'lim texnologiyalarida formallik, takroriylik, maqsad va vazifalarning nomuvofiqligi, qayta aloqalarning intensiv emasligi, loyihalash va rejalashtirishning ketm a-ket amalga oshirilmasligi kabi kamchiliklar ko'zga tashlanmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh.Mirziyayev "Yangi O'zbekiston – taraqqiyot yo'li" Toshkent - 2020
2. N.Q. To'raxo'jayev, N.A. Ahmedov. "Pedagogika nazariyasi va tarixi"– Toshkent: "Fan va texnologiya", 2022.
3. Q.Q.Yuldashev, M.A. Qodirova "Innovatsion pedagog texnologiyalar" – Toshkent: "Ilm ziyo", 2021.
4. Sh.K.Kurbanov "Pedagogik texnologiyalar va pedagog mahorati" – Toshkent: "O'qituvchi", 2019.
5. Z.A. Raxmonov "Zamonaviy dars: shakl va metodlar" – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2023.
6. Xasanboyeva G.T., "Pedagogik texnologiyalar", Toshkent, 2020.
7. Azizxo'jaeva N.N., "Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat", Toshkent, 2019.